<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqqa oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti v. b. dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijodiy tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojlanishidagi o'rni hamda bu tafakkur turining asosiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Ayniqsa, maktabga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari va yoshga xos rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida ijodkorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar, innovatsion metodlar, didaktik vositalar va interfaol metodlardan foydalanish orqali kichik yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash, noodatiy yechimlar topa olish, tasavvur qilish va fantaziya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi asoslangan. Shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolar, ularning sabab va oqibatlari tahlil etilib, samarali yechimlar taklif qilingan. Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar, pedagogika yo'nalishidagi talabalar hamda ota-onalar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, kichik maktab yoshi, boshlang'ich ta'lim, tafakkur jarayoni, pedagogik yondashuvlar, tasavvur, fantaziya, innovatsion metodlar, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, noodatiy yondashuv, muammo yechimi, o'yinli metodlar, didaktik vositalar, maktab psixologiyasi, bolaning shaxsiy rivojlanishi, dars jarayoni, ijodiy muhit, vizual materiallar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, o'quvchini rag'batlantirish, o'qituvchining roli.

Abstract: This article analyzes the concept of creative thinking, its significance in the development of primary schoolchildren, and the main characteristics of this type of thinking. Particular attention is given to the psychological and pedagogical foundations of fostering creativity in early schoolchildren and its close connection with age-specific developmental features. The article substantiates the necessity of applying creativity-oriented approaches, innovative methods, didactic tools, and interactive techniques to develop independent thinking, problem-solving abilities, imagination, and fantasy among young learners. Furthermore, it examines the challenges hindering the development of creative thinking, analyzes their causes and consequences, and offers effective solutions. The article provides practical recommendations for primary school teachers, educators, methodologists, pedagogy students, and parents interested in the comprehensive development of children.

Key words: creative thinking, primary school age, elementary education, thinking process, pedagogical approaches, imagination, fantasy, innovative methods, creativity, independent thinking, critical thinking, non-standard approach, problem solving, game-based methods, didactic tools, school psychology, child development, learning process, creative environment, visual materials, modern educational technologies, interactive methods, socio-emotional development, student motivation, teacher's role.

Аннотация: В данной статье рассмотрена сущность творческого мышления, его значение в развитии младших школьников, а также основные особенности формирования данного типа мышления. Особое внимание уделено психолого-педагогическим основам развития креативности у детей младшего школьного возраста и их взаимосвязи с возрастными особенностями развития. В статье обоснована необходимость применения креативно-ориентированных подходов, инновационных методов, дидактических средств и интерактивных технологий для развития самостоятельного мышления, способности к решению нестандартных задач, воображения и фантазии у младших школьников. Также выявлены проблемы, препятствующие развитию творческого мышления, проанализированы их причины и последствия, предложены эффективные пути их решения. Статья может быть полезна учителям начальных классов, педагогам, методистам, студентам педагогических направлений и родителям, заинтересованным во всестороннем развитии ребёнка.

Ключевые слова: творческое мышление, младший школьный возраст, начальное образование, процесс мышления, педагогические подходы, воображение, фантазия, инновационные методы, креативность, самостоятельное мышление, критическое мышление, нестандартный подход, решение проблем, игровые методы, дидактические средства, школьная психология, личностное развитие ребёнка, учебный процесс, творческая среда, визуальные материалы, современные образовательные технологии, интерактивные методы, социально-эмоциональное развитие, мотивация учащихся, роль учителя.



KIRISH

XXI asrda insoniyat taraqqiyoti, texnologik yutuqlar va raqamli dunyoning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlarni, ayniqsa yosh avlod tafakkurini rivojlantirish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida mustaqil, ijodkor, yangilikka intiluvchan, o'z fikrini ochiq ifoda eta oladigan shaxsni shakllantirish – har bir davlatning, har bir jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Shu jihatdan olib qaralganda, boshlang'ich ta'lim bosqichi, xususan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (7–10 yosh) bilan ishlash jarayoni alohida e'tiborni talab etadi. Zero, bu davr bola tafakkuri va dunyoqarashining shakllanishi, bilimlarni egallashga nisbatan ichki ehtiyojning ortishi, mustaqil fikrlashning boshlanishi davridir.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va samarali pedagogik metodlarni qo'llashning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Ijodiy tafakkur va uning o'ziga xos jihatlari

Ijodiy tafakkur inson ongining eng yuqori shakllaridan biri bo'lib, yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud ma'lumotlarga tayanib yangilik yaratish, muammolarga noodatiy va original yechimlar topish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodiy tafakkur bu faqat san'at, adabiyot yoki musiqa sohalariga xos bo'lgan hodisa emas, balki ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy va hatto kundalik hayotdagi faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmadir. Insonda tug'ma ravishda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan bu qobiliyat, shuningdek, atrof-muhit, tarbiya, ta'lim, tajriba va amaliy mashg'ulotlar ta'sirida shakllanib rivojlanadi.

Ijodiy tafakkurning asosiy o'ziga xos jihatlardan biri bu – noodatiy yondashuvdir. Bu xususiyat insonni har bir muammoni yangicha, o'ziga xos ko'z bilan ko'rishga undaydi. Oddiy holatlardan ham yangilik izlash, tasavvur doirasini kengaytirish, mavjud narsalarning chegarasini buzish orqali yangi g'oyalarni kashf etish ijodiy tafakkurning ajralmas belgisidir. Bu jarayonda inson faqat bor narsani takrorlamaydi, balki mavjud bilimlarni yangicha talqin qiladi yoki ularning asosida yangilik yaratadi.

Shuningdek, ijodiy tafakkur mustaqil fikrlashga asoslanadi. Bunday fikrlash jarayonida shaxs stereotiplardan voz kechadi, o'z qarashlari va kuzatuvlari orqali xulosa chiqaradi. Bu esa o'z navbatida bolaning shaxsiy pozitsiyasi va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kichik maktab yoshida bu ko'nikmaning rivojlanishi bolaning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bo'lishiga zamin yaratadi.

Ijodiy tafakkurda tasavvur va fantaziya kuchli rol o'ynaydi. Bola real hayotda mavjud bo'lmagan hodisalarni o'z tasavvurida yaratadi, ularni tahlil qiladi va ular bilan bog'liq xulosalar chiqaradi. Masalan, “agar odamlar uchishni bilsa edi, nima bo'lardi?” kabi savollar bolani mantiqiy izlanishga, o'z fikrini asoslashga undaydi. Bu esa nafaqat ijodiy, balki tanqidiy tafakkurning ham shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ijodiy tafakkur jarayoni emotsional faollik bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ijodkor inson, odatda, o'z ishiga mehr bilan yondashadi, u o'zini bu jarayonga to'liq bag'ishlaydi. Aynan shu hissiy sadoqat, hayrat va qiziqish ijodiy jarayonni ilhomlantiruvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ijodiy tafakkurda moslashuvchanlik ham muhim o'rin tutadi. Inson turli vaziyatlarda o'z fikrini o'zgartira olishi, boshqa qarashlarni qabul qila bilishi, turli yechimlarni solishtira olishi orqali o'z intellektual salohiyatini kengaytiradi. Bu esa ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish va yangi sharoitlarga tez moslashish imkonini beradi.

Ijodiy tafakkurning quyidagi asosiy o'ziga xos jihatlari alohida ta'kidlash mumkin:

1. **Noodatiy yondashuvga intilish.** Ijodiy fikrlovchi bola muammoga bir nechta tomondan qarashni o'rganadi, har doim yangi yechim topishga intiladi. U doimiy “Nega?”, “Agar bunday bo'lsa-chi?” degan savollarni berishga moyil bo'ladi.
2. **Tasavvur va fantaziyaning kuchliligi.** Ijodiy tafakkur tasavvursiz mavjud bo'la olmaydi. Bolalar ko'pincha real voqealarni o'z fantaziyasi bilan uyg'unlashtirib tasvirlaydi. Bu – tafakkurning ijodiylikining birinchi belgisi hisoblanadi.
3. **Muammoni original hal qilish.** O'quvchi ma'lum bir topshiriqqa bir nechta noodatiy, lekin mantiqan asosli yechimlar taklif etishi mumkin. Bu esa uning mustaqil va ijodiy fikrlay olish darajasini ko'rsatadi.
4. **Intellektual mustaqillik.** Ijodiy tafakkurga ega o'quvchi boshqa fikrlarga to'liq tayanmaydi, o'z qarashi va mulohazasini shakllantirishga harakat qiladi. Bu holat bola shaxsining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Pedagoglar uchun bu jihatlarni anglash va rivojlantirish ustida ishlash nihoyatda muhimdir. Chunki ijodiy tafakkur – o'quvchining intellektual salohiyatini ro'yobga chiqaradigan asosiy omillardan biridir. Maktabda ijodiy muhit yaratilsa, o'quvchi faqat bilim egallabgina qolmay, balki bu bilimni hayotiy vaziyatlarda qanday qo'llashni ham o'rganadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jumayev X. o'z tadqiqotlarida boshlang'ich ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, bolalarda mustaqil fikrlash va noodatiy yechim topish ko'nikmalarining yosh davrlarga xos rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. Uning qarashlari kichik maktab yoshi davrida o'quvchilarning psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda innovatsion metodlar va interfaol yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

Khushboq Jumayevning bir qator ilmiy ishlari ham mazkur yo'nalishda alohida ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarda xotira jarayonlari va mnemik qobiliyatlarning rivojlanishini chuqur tahlil qilib, ularning ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ochib bergan. Xususan, xotira mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan metodlar bolalarda nafaqat eslab qolish, balki mustaqil tafakkur yuritish va yangi g'oyalarni shakllantirish imkoniyatini kengaytirishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Shabbazova D. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik maktab o'quvchilarining savodxonligini oshirishda psixologik-pedagogik omillar hamda shaxsiy qadriyatlarga asoslangan yondashuvning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Bu yondashuv ijodiy tafakkurni rag'batlantirishda bolaning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarurligini tasdiqlaydi. Mazkur ilmiy qarashlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha izchil nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonini o'rganish uchun ma'lumotlar kuzatuv, suhbat va pedagogik tajribalar orqali yig'ildi. Kuzatuv jarayonida o'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki, mustaqil fikrlashga intilishi va ijodiy topshiriqlarga munosabati qayd etildi. Suhbatlar orqali o'qituvchi va ota-onalarning qarashlari tahlil qilindi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida qo'llanilgan metodlarning samaradorligi baholandi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, mavjud muammolar tizimlashtirildi va ularning bartaraf etilish yo'llari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish – bu uzluksiz, murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'quvchi shaxsining intellektual va ruhiy jihatdan o'sishini ta'minlaydi. Ammo amaliyotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirishda qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni tizimlashtirish orqali ularni bartaraf etish yo'llarini izlash osonlashadi.

- 1. An'anaviy ta'lim metodlarining ustunligi.** Maktablarda, ayniqsa boshlang'ich sinflarda, ko'plab o'qituvchilar hanuzgacha an'anaviy, reproduktiv usullardan foydalanmoqda. Bu usullar o'quvchilarga tayyor bilimni berishga yo'naltirilgan bo'lib, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga kam imkoniyat yaratadi. O'quvchilarning o'z fikrini ifoda etishiga, alternativ yechimlar taklif qilishiga sharoit bo'lmaydi.
- 2. O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi pastligi.** Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda pedagogning o'rni beqiyosdir. Afsuski, barcha o'qituvchilar ham zamonaviy metod va texnologiyalarni, ayniqsa ijodiy yondashuvlarni chuqur o'zlashtirgan emas. Ko'pchilik o'qituvchilar darsni tez yakunlash, reja asosida o'tish, baho qo'yish kabi maqsadlarga e'tibor qaratib, o'quvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yetarlicha vaqt ajratmaydi.
- 3. O'quv dasturlarining biryoqlamaligi.** Boshlang'ich ta'lim uchun mo'ljallangan darsliklar va metodik materiallar ko'pincha faktlar, qoidalar, misollarni eslab qolish va yodlashga yo'naltirilgan. Ijodiy topshiriqlar, ochiq savollar, muammoli vaziyatlar yetarlicha kiritilmagan. Bu holat o'quvchilarni mustaqil fikrlashdan ko'ra, ko'proq takrorlashga undaydi.
- 4. Baholash tizimining motivatsiyani pasaytirishi.** Hozirgi baholash tizimi, ayniqsa kichik sinflarda, asosan aniq, to'g'ri javoblarga tayanadi. Har qanday noodatiy yondashuv, agar u umumiy standartdan chetga chiqsa, kam baholanishi mumkin. Bu esa o'quvchilarda ijodiy fikr bildirishga nisbatan qo'rquv va ishonchsizlik uyg'otadi.
- 5. Ota-onalarning yetarli darajada qo'llab-quvvatlamasligi.** Ko'plab ota-onalar bolalarining ijodiy mashg'ulotlarga (chizish, hikoya yozish, rolli o'yinlar o'ynash) sarflaydigan vaqtini bekorchilik deb hisoblaydi. Ular farzandining test savollarini yaxshi bajarishini afzal ko'radi. Bu esa bolaning ijodkorlikka bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.



6. **Texnologik vositalardan biryoqlama foydalanish.** Raqamli texnologiyalarni o'qitishda to'g'ri ishlatish – ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq amaliyotda kompyuter, planshet yoki telefondan faqat tayyor ma'lumotni olish vositasi sifatida foydalaniladi. O'quvchini o'z g'oyasini raqamli vositalar orqali ifoda etishga o'rgatish hali keng yo'lga qo'yilmagan.
7. **Maktabda ijodiy muhitning yetarli emasligi.** O'quvchilarning ijodiy tafakkuri asosan erkinlik, ochiqlik va rag'batlantirish orqali rivojlanadi. Afsuski, ko'pchilik boshlang'ich sinf xonalari ijodiy faoliyat uchun moslashtirilmagan: didaktik materiallar, illyustratsiyalar, o'yinlar, teatr elementlari yetarli darajada mavjud emas.

Ushbu muammolarni anglash va tahlil qilish orqali ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan amaliy harakatlar qilish mumkin bo'ladi. Keyingi bo'limda aynan shu yo'nalishdagi rivojlantirish yo'llari va takliflar haqida fikr yuritiladi.

Rivojlantirish yo'llari

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish – bu o'ziga xos pedagogik yondashuv, ilg'or metodikalar va doimiy rag'batlantirishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi, ota-ona va maktab muhitining uzviy hamkorligi zarur. Quyida ushbu yo'nalishda samarali bo'lgan asosiy yo'llar va metodlar bayon etiladi.

1. **Muammoli ta'lim usullarini qo'llash.** Muammoli vaziyatlar asosida dars tashkil etish o'quvchini mustaqil fikrlashga, savol berishga, izlanishga undaydi. O'qituvchi dars jarayonida oddiy faktlarni emas, balki o'ylash, solishtirish, tahlil qilish va taxmin qilishga asoslangan topshiriqlarni berishi lozim. Masalan: "Agar yerda tortish kuchi bo'lmasa, nima bo'ladi?", "Erkin qush bo'lsang, qayerga ucharding?". Bu kabi ochiq savollar bolani kengroq fikrlashga undaydi.
2. **O'yinli va interaktiv metodlardan foydalanish.** Kichik maktab yoshi bolalarning asosiy faoliyati – bu o'yin. Shu sababli, didaktik o'yinlar, rolli mashg'ulotlar, dramatik sahnalar, ijodiy topshiriqlar orqali dars tashkil etish ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: so'zlardan ertak tuzish o'yini, rolga kirish orqali hikoya aytish, muammoli vaziyatni sahnalashtirish.
3. **O'quvchilarning mustaqil fikriga hurmat bilan yondashish.** Har qanday ijodiy fikr – hatto u to'g'ri bo'lmasa ham – e'tirof etilishi va rag'batlantirilishi kerak. O'quvchi o'z fikrini bildirishdan qo'rqmasligi uchun psixologik erkinlik muhitini yaratish zarur. O'qituvchi "Sen qiziq fikr aytding, boshqa yechimlar ham bo'lishi mumkinmi?", "Bu g'oyang menga yoqdi, izohini ham ayta olasanmi?" kabi iboralarni qo'llashi lozim.
4. **Tasviriy san'at, musiqa va adabiyot orqali tafakkurni rag'batlantirish.** Ijodiy tafakkur san'at bilan chambarchas bog'liq. She'rlar, ertaklar, rasm chizish, qo'shiq kuylash – bular bolani estetik fikrlashga, his qilishga va tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan: "Bu rasmda qanday kayfiyat bor deb o'ylaysan?", "Agar bu she'rga davom yozsang, qanday bo'lardi?".
5. **Differensial yondashuvni qo'llash.** Har bir o'quvchi individual shaxsdir. Shuning uchun ularning qiziqishi, bilim darajasi va tafakkuriga qarab individual topshiriqlar berish muhim. Bu, ayniqsa, ijodiy topshiriqlarda o'z aksini topishi kerak. Masalan: kuchli o'quvchilarga – hikoyani davom ettirish, o'rtacha o'quvchilarga – ertak asosida rasm chizish, qiyin o'zlashtiruvchilarga – oddiy savollar bilan ertakning asosiy mazmunini aniqlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ijodiy tafakkurni rivojlantirish – bu faqatgina bilim berish emas, balki o'quvchining hayotga bo'lgan qarashini, shaxsiy rivojlanishini, jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi keng qamrovli tarbiyaviy va ta'limiy jarayondir. Ushbu yo'nalishga ongli va tizimli yondashish orqaligina biz ertangi kunning ijodkor, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi avlodini tarbiyalay olamiz.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar va yondashuvlar – muammoli ta'lim, o'yinli faoliyat, interaktiv mashg'ulotlar, san'at bilan integratsiyalashgan topshiriqlar, differensial yondashuv hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarni erkin, mustaqil va noodatiy fikrlashga yo'naltirish mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlik, bolaga nisbatan hurmat va e'tibor, uning har bir fikrini qadrlash ham bu jarayonning ajralmas qismidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumayev, X. (2023, May). Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.
2. Khushbok Jumayev. (2023). Regulations of Memory Development in Primary School Students. World Bulletin of Social Sciences, 27, 116–119.
3. Khushbok Jumayev. (2023). Methods and Principles of Memory Development of Students of Junior School Age. Open Access Repository, 9(10), 199–203.
4. Khushbok Jumayev. (2023). Preparation for Mother Tongue Education in the Development of Memory of Children of Primary School Age. E Conference Zone, 1–7.
5. Khushbok Jumayev. Shaxs xotirasini rivojlantirishning nazariy jihatlar. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlar ilmiy jurnali. Toshkent, 2023, №1/11/1, b.129–130.
6. Khushbok Jumayev. O'quv jarayonida kichik maktab o'quvchilarining mnemik qobiliyatlarining operatsion mexanizmlarini ishlab chiqish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №9, b.506–510.
7. Shabbazova, D. (2023). Psychological-Pedagogical Factors of Improving the Literacy of Elementary School Students Based on a Personal Value Approach. Academia Science Repository, 4(05), 12–19.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.